

2016 YIL 1-CHORAK UCHUN STANDARTLASHTIRISH, METROLOGIYA VA SERTIFIKATLASHTIRISH SOHASIDA ISHLAR HOLATI TO'G'RIDA ANALITIK MA'LUMOTNOMA

O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi ("O'zstandart" Agentligi) texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish va sifat tizimlarini boshqarish masalalari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining milliy organi hisoblanadi.

"O'zstandart" agentligining asosiy vazifalari:

- texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish sohalarda O'zbekiston Respublikasining "Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida", "Standartlashtirish to'g'risida", "Metrologiya to'g'risida", "Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida", "Muvofiqlikni baholash to'g'risida"gi qonunlarni va boshqa qonunchilik va normativ-huquqiy hujjatlarni amaliy jihatdan amalga oshirishni ta'minlashdan;

- xalqaro standartlarni qo'llash asosida standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish, mahsulotning sifati va raqobatbardoshligini oshirish, jumladan sifat tizimini boshqarish va boshqa sohalarda yagona davlat siyosatini amalga oshirishdan iborat.

Standartlashtirish va texnik jihatdan tartibga solish

2016 yil birinchi choragida 500 ta standart va ularga o'zgartishlar davlat ro'yxatidan o'tdi.

Hisobot davrida normativ hujjatlar davlat fondiga 56 ta ISO xalqaro standartlari, 117 ta davlatlararo standartlar (GOST), 52 ta Rossiya davlat standartlari (GOST R) keldi.

2016 yil 1 aprel holatiga ko'ra Davlat fondi standartlashtirish bo'yicha 61 275 ta normativ hujjatlarni o'z ichiga oladi, ulardan:

- 10 435 xalqaro standartlar;
- 24 801 davlatlararo standartlar;
- 14347 xorij davlatlarining milliy standartlari;
- 4119 O'zbekiston Respublikasi davlat standartlari;
- 4559 tashkilot standartlari va boshqa.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 30 iyulda 207-son bilan tasdiqlangan "Texnik reglamentlarni ishlab chiqish dasturi", Vazirlar Mahkamasi va "O'zstandart" agentligining tegishli Qarorlariga muvofiq 12 ta texnik reglament (7 ta umumiy, 5 ta maxsus) tasdiqlandi, ulardan 2016 yil 1-chorakda Vazirlar Mahkamasi tomonidan ikkita umumiy texnik reglament qabul qilindi:

- "Ekspluatatsiya qilish shartlari bo'yicha qishloq xo'jaligi texnikasi konstruksiyalarining xavfsizligi to'g'risida" (Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 18 martdagi 80-sonli qarori);

- "Donning xavfsizligi to'g'risida" (Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 31 martdagi 99-sonli qarori);

Quyidagi umumiy texnik reglamentlar ishlab chiqildi va Vazirlar Mahkamasiga tasdiqlashga kiritildi:

- "Dori vositalarining xavfsizligi to'g'risida";
- "Liftlarning xavfsizligi to'g'risida";
- "Yengil sanoat mahsulotlarining xavfsizligi to'g'risida".

Respublikada ishlab chiqarilayotgan sport inventari va jihozlari, hamda sport kiyimi va poyabzali sifatini oshirish bo'yicha hukumat qarorlarini bajarish maqsadida "O'zstandart" agentligi mutaxassislari ishchi guruhlar tarkibida respublikaning ko'rsatib o'tilgan mahsulot turlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan 74 ta korxonasini o'rganishda ishtirok etdilar.

Inventarizatsiya natijalari bo'yicha korxonalarining jihozlanganligi, jihozlarning texnik va texnologik holati, konstruktorlik va texnologik hujjatlarning mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotlar umumlashtirildi. Ishlab chiqarilayotgan mahsulotning sifatini oshirish va uni xalqaro standartlar talablariga muvofiq bo'lishi maqsadida, ishlab chiqarish va sinov jihozlarini modernizatsiya qilish, sport inventari va jihoziga oid standartlashtirish bo'yicha normativ hujjatlarni xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirish, korxonalarda xalqaro standartlarga muvofiq keluvchi sifat menejmenti tizimini joriy qilish bo'yicha takliflar berildi.

O'lchashlar birliligini ta'minlash

O'zbekiston Respublikasining "Metrologiya to'g'risida"gi Qonunini amalga oshirishni ta'minlash doirasida 2016 yil 1-chorakda "O'zstandart" agentligining metrologik xizmatlari tomonidan 521 633 ta o'lchash vositasi qiyoslandi, ulardan 16 266 (3,1 %) ta o'lchash vositasi yaroqsiz deb topildi va qo'llanilishi to'xtatildi.

2016 yil 1-chorak davomida 11 ta o'lchash vositasiga tasdiqlangan turni tan olish sertifikatini tayyorlandi va rasmiylashtirildi, hamda 28 turdagi o'lchash vositalari O'zbekiston Respublikasi O'lchash vositalari davlat reyestriga kiritish bilan turni tasdiqlash maqsadida davlat sinovidan o'tkazildi.

Respublikamiz korxonalar va tashkilotlarining so'rovnomalariga binoan Buyuk Britaniya, Germaniya, Koreya, Xitoy, Rossiya Federatsiyasi, AQSh, Ukraina va b. ishlab chiquvchilarning 33 turdagi SN ekspertiza qilingandan keyin Standart namunalar (SN) davlat reyestriga kiritildi.

O'zbekiston Respublikasi o'lchashlar birliligini ta'minlash tizimining normativ-huquqiy bazasini takomillashtirish maqsadida "O'lchash vositalarini metrologik attestatsiyadan o'tkazish qoidalari" normativ-huquqiy hujjatining loyihasi tayyorlandi va O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligiga o'rnatilgan tartibda ro'yxatdan o'tkazishga taqdim qilindi.

O'zbekiston Respublikasi "Metrologiya to'g'risida"gi Qonuniga binoan Davriy qiyoslashdan o'tkazilishi kerak bo'lgan o'lchash vositalarining ro'yxatini qayta ko'rib chiqish bo'yicha ishlar doirasida Qiyoslashdan o'tkazilishi kerak bo'lgan o'lchash vositalari guruhining ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida "O'zstandart" agentligi bosh direktori buyrug'i loyihasi tayyorlandi va O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligiga ro'yxatdan o'tkazishga taqdim qilindi.

Loyihalar Interaktiv davlat xizmatlarining yagona portalida (IDXYaP) va "O'zstandart" agentligining rasmiy veb-saytida muhokama qilindi.

Muvofiqlikni baholash

2016 yil 1 aprel holatiga respublikada "O'zstandart" agentligi tomonidan akkreditlangan:

- 127 ta mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish organi;
- 26 ta menejment tizimlarini sertifikatlashtirish organi;
- 453 ta sinov laboratoriyalari;
- 42 ta shartnomalarni mustaqil ekspertiza qilish, yuklarni ortish/tushirish inspeksiyasi bo'yicha konsalting kompaniyalari;
- 3 ta xodimlarni sertifikatlashtirish organi muvofiqlikni baholash sohasida xizmat ko'rsatmoqda.

Respublika hududlarida xizmat ko'rsatish maqsadida mahsulotlarni (xizmatlarni) sertifikatlashtirish bo'yicha 17 ta, menejment tizimlarini sertifikatlashtirish bo'yicha 5 ta sertifikatlashtirish organlari, 46 ta sinov laboratoriyalar (shu jumladan, qurilish materiallari bo'yicha – 12 ta, elektrotexnika mahsulotlari bo'yicha – 10 ta, mashinasozlik bo'yicha – 8 ta, kimyo mahsulotlari – 10 ta, oziq-ovqat mahsulotlari – 4 ta va putur yetkazmasdan tekshirish – 2 ta) akkreditlandi. Joylarda sertifikatlashtirish ishlarini o'tkazishni ta'minlash maqsadida Respublika va hududiy sinov va sertifikatlashtirish markazlari (SSM) sertifikatlashtirish organlarining akkreditatsiya sohalari kengaytirildi va majburiy tartibda sertifikatlashtiriladigan mahsulotlarning 95 % qamrab olinishi ta'minlandi.

2016 yil 1-chorakda O'zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish milliy tizimida 31 327 ta muvofiqlik sertifikatlari berildi, jumladan xorijiy mamlakatlarning sertifikatlarini tan olish yo'li bilan 500 ta muvofiqlik sertifikatlari, muvofiqlik to'g'risidagi deklaratsiya asosida 18 ta sertifikat rasmiylashtirildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 14 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasining "Muvofiqlikni baholash to'g'risida"gi Qonunini amalga oshirish choralari to'g'risida"gi 292-sonli qarorni bajarish maqsadida, akkreditatsiyadan o'tgan mahsulotlarni sertifikatlashtirish organlari, menejment tizimini sertifikatlashtirish organlari, inspeksiya organlari, metrologik xizmatlar, sinov va kalibrlash laboratoriyalari faoliyatini inspeksiya nazoratidan o'tkazishning namunaviy dasturlari, hamda 2016 yilda yuqorida qayd etilgan muvofiqlikni baholash sub'ektlari faoliyatini inspeksiya nazoratidan o'tkazish reja-jadvali "O'zstandart" agentligi tomonidan tasdiqlandi.

Sifatni boshqarish tizimlari

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 19 oktyabrdagi 298-sonli «2020 yilgacha bo'lgan vaqt oralig'ida milliy sifat infratuzilmasini rivojlantirish dasturini tasdiqlash to'g'risida»gi Qarori hamda avval qabul qilingan hukumat qarorlarini bajarish maqsadida 2016 yil 1 aprel holatiga ko'ra respublikaning 2392 ta korxonasida sifat menejmenti tizimi (SMT) joriy qilindi va sertifikatlashtirildi hamda 2497 ta muvofiqlik sertifikatlari rasmiylashtirildi. Shundan:

- 2249 tasi ISO 9001:2008 xalqaro standarti talablari bo'yicha;
- 49 ta ISO 14001:2004 ekologik menejment tizimi xalqaro standarti talablari bo'yicha;
- 64 ta OHSAS 18001:2007 sanoat xavfsizligi va salomatlik menejmenti tizimi xalqaro standarti bo'yicha;
- 54 ta ISO 22000:2005 oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi menejmenti tizimi xalqaro standarti talablari bo'yicha;
- 29 ta ISO 16949 avtomobilsozlik va tegishli butlovchi qismlarni yetkazib beruvchi korxonalarda sifat menejmenti tizimi xalqaro standarti talablari bo'yicha;
- 6 ta tegishli ishlab chiqarish amaliyoti (GMP) tizimi xalqaro standarti talablari bo'yicha;
- 46 ta integratsiyalashgan menejment tizimi bo'yicha.

Muvofiqlikni baholash sohasida normativ-huquqiy bazani takomillashtirish maqsadida "O'zstandart" agentligi tomonidan "Menejment tizimini sertifikatlashtirish tartibi to'g'risida nizom" ishlab chiqildi va 2016 yil 16 yanvarda O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligida 2754-son bilan ro'yxatdan o'tkazildi.

Xalqaro hamkorlik

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 15 maydagi PQ-2343-sonli «2015-2019 yillarda iqtisodiyot tarmoqlarida va ijtimoiy sohada energiya sig'imini qisqartirish va energiya tejoychi texnologiyalarni joriy qilish bo'yicha choralar dasturi to'g'risida»gi Qarorini bajarish doirasida 2015 yilning 20 oktyabrida «O'zstandart» agentligi Bosh direktori va Xalqaro elektrotexnika komissiyasi (IEC) Bosh kotibi tomonidan IEC ishtirokchi a'zo davlatlar dasturida O'zbekiston Respublikasining ishtirok etishi uchun majburiyatlarni olish to'g'risida hujjat imzolandi va respublikaning ishtiroki uchun yanada ustuvor IEC texnik qo'mitalari aniqlandi.

"O'zstandart" agentligining qabul qilgan majburiyatlariga muvofiq joriy yilning birinchi choragida energiyani tejash va energosamaradorlik sohalarida milliy standartlarni ishlab chiqishda foydalanish uchun elektrotexnika mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi korxonalar so'rovnomalari bo'yicha 110 ta IEC standartlari kelib tushdi.

Shuningdek, energomenejment sohasida mutaxassislar xabardorligi darajasini oshirish va O'zbekiston Respublikasi korxonlari va tashkilotlarida energosamaradorlik darajasini oshirishda amaliy yordam ko'rsatish maqsadida 2016 yil 26-27 yanvar kunlari Germaniyaning

Fizika-Texnika instituti (RTV) ko'magida "O'zstandart" agentligida "Xalqaro Elektrotexnika Komissiyasi (IEC) faoliyati va energomenejment bo'yicha ISO/IEC 50001 standartini joriy qilish tajribasi" mavzusida seminar o'tkazildi.

2015 yil 14-27 fevral kunlari Koreya xalqaro hamkorlik agentligining (KOICA) grant mablag'lari hisobiga moliyalashtiriladigan "Zamonaviy AKT joriy qilish yo'li bilan "O'zstandart" agentligining imkoniyatlarini oshirish va Rivojlanishning bosh rejasini ishlab chiqish" qo'shma loyhasini amalga oshirish doirasida Koreya ijroiya tadqiqot missiyasining "O'zstandart" agentligiga ishchi tashrifi bo'lib o'tdi. Koreya xalqaro hamkorlik agentligi vakillari, Koreya testdan o'tkazish va sertifikatlashtirish kompaniyasi va AT Konsalting bo'yicha Koreya kompaniyasi ekspertlaridan iborat bo'lgan missiya mutaxassislari "O'zstandart" agentligi mutaxassislari bilan birgalikda faoliyatning barcha yo'nalishlari bo'yicha "O'zstandart" agentligi o'rganib chiqildi va loyiha bo'yicha konseptual takliflar tayyorlandi.

Sertifikatlashtirish organlari va sinov laboratoriyalarini akkreditlash bo'yicha ishlar natijalarini MDH davlatlari-ishtirokchilari o'rtasida tan olinishini ta'minlash maqsadida, Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish bo'yicha davlatlararo kengash doirasida Muvofiqlikni baholash bo'yicha organlarning akkreditatsiyasini o'zaro tan olish to'g'risida kelishuv loyihasi ishlab chiqildi. Respublikaning manfaatdor vazirliklari va idoralari bilan hujjatlarni ishlab chiqish natijalari bo'yicha umumlashtirilgan Kelishuv bo'yicha fikr-mulohazalar va takliflar MDH Ijroiya qo'mitasiga yuborildi.

Standartlashtirish, texnik jihatdan tartibga solish, muvofiqlikni baholash sohasida xalqaro amaliyot masalalarida mutaxassislar va tadbirkorlik sub'ektlarini xabardorligi darajasini oshirish uchun, Germaniya Xalqaro hamkorlik bo'yicha jamiyatining (GIZ) "Markaziy Osiyoda mintaqaviy savdo-sotiqqa ko'maklashish" Dasturi ko'magida bir qator o'quv seminarlari o'tkazildi:

- 2016 yil 16 fevralda "Standartlar va texnik reglamentlarni ishlab chiqishda xalqaro talablar va yaxshiroq amaliyot, davlat va xususiy sektor dialogi mexanizmi";

- 2016 yil 15-18 mart "Analitik laboratoriyada sifat menejmentini ta'minlash va sinov usullarini validatlash sohasida xalqaro talablar".